



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-NOYABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-noyabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida shahar korxonalari tomonidan 97,9 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,6 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 78,8 trln. so'mni tashkil etdi.




B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,7 % ga o'sishi kuzatildi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 13,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 67,4 % ga o'sishi hamda tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 5,1 %, pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,4 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 13,7 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar-noyabr oylarida, % da)



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati



Tabiiy gaz




Neft



Shagʻal



Chaqiq tosh




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	588,0	606,0	18,0
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	32 859,2	32 303,8	-555,4
Gaz kondensati, ming t.	669,3	657,6	-11,7
Chaqiq tosh ming t.	889,4	3022,4	2132,9


Shagʻal t. 12076,2

Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,8 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,6 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-noyabr oylarida, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 7,6 % ni (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida – 11,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,0 % (19,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 29,5 % (32,4 %) va quyi texnologiyalisi – 41,9 % (36,8%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,0 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,9 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 15,0 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,2 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –


7,6 % (2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 121,4%)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13712,5 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (34,5 % ga oshgan), 53,6 ming tonna kunjara va qattiq chiqindilar (45,5 % ga oshgan),

1 739,0 mln dona tamaki mahsulotlari (3,1 %) hamda 14,1 ming tonna margarin va yormalar (11,3 % ga oshgan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna.	71,7	70,2	-1,4
Paxta kalavasi, ming tonna.	47,3	32,4	-15,0
Margarin va yormalar ming tonna.	12,6	14,1	1,4
Pivo – mln litr	64,8	73,9	9,1
Traktorlar - dona	213,0	126,0	-87,0
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	439,9	676,5	236,6
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.	14 514,0	14 911,0	397,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	1 686,7	1 739,0	52,3

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


2022- yilning yanvar-noyabr oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 126 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 40,8 % ga kamaygan.

**Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,
yanvar-noyabr oylarida**

miqdori dona



o'sish sur'ati, % da



**Toshkent shaharda yengil avtomobillar
ishlab chiqarish sanoati
yanvar-noyabr oylarida, dona**



"Volkswagen
Caddy"

2022-
y.


423

Metallurgiya sanoati

(yanvar-noyabr)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 34,3 % ga ko'paygan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 15,0 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 99,7 % va ishlab chiqarish hajmi 11 829,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar-noyabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 27,4 % ga ko'paygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3345,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 9762,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oylarida)

FHI
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 22,2 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 166,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10633,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 119,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,4 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4561,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-noyabr oylarida)




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 121,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 96,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1324,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar-noyabr oylarida)

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 17,1 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2955,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar-noyabr oylarida)

FHI
% da



2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 42,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 33,4 martaga ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 334,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish (yanvar-noyabr oylarida)




2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,8 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 99,9 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 22 100,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (yanvar-noyabr oylarida)


2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 113,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi 124,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2998,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-noyabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,9 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 67,4 % ga ko'payganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-noyabr oylarida, % da)



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-noyabr	2022- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	314,9	2732,4	2417,5

Issiqlik energiyasi,
ming gkal

11 695,1

10 433,8

-1261,3

**Elektroenergiya uzatish
bo'yicha xizmatlar, mln
so'm.**


749,6

812,4

62,8

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

yanvar-noyabr oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,7 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-noyabr oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- noyabr	2022- yil yanvar- noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	87,0	151,0	64,0
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	382,7	336,2	-46,5
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	172,1	238,1	66,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 12,2 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 38,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 73,5 % ga o'shish kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 42,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 44,4 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,6 % (2021-yil yanvar-noyabr oylarida 4,4 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib 15,4 % ni, shuningdek, Bektemir tumani 14,6 % ni, Sirg'ali tumani 13,4 % ni hamda Olmazor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Bektemir (205,6 %), Shayxontoxur (165,4 %), Yangihayot (130,8 %), Mirzo Ulug'bek (128,1 %), Mirobod (123,4 %), Uchtepa














(123,4 %) tumanlarida hamda Yunusobod tumanida (118,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022-yilning yanvar-noyabr oylarida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da				
	42 599,3			100			120,3				
Toshkent shahri											
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3 572,8	8,4	123,4		6 219,7	14,6	205,6				
Uchtepa				Bektemir							
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 888,2	4,4	118,5		2 056,2	4,8	128,1				
Yunusobod				Mirzo Ulug'bek							
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2 661,6	6,2	123,4		2 046,0	4,8	165,4				
Mirobod				Shayxontoxur							
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3 682,7	8,6	113,1		5 701,8	13,4	115,8				
Olmazor				Sirg'ali							
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2 125,4	5,0	111,8		6 575,1	15,4	95,5				
Yakkasaroy				Yashnobod							
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2 433,5	5,7	130,8		3 636,1	8,5	89,5				
Yangiayot				Chilonzor							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 19,5 % shuningdek, Uchtepa 11,3 %, Chilonzor tumani 10,5 % ni, Mirobod tumani 10,5 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'ycha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022- yilning yanvar-noyabr oylarida

















	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da		
	22 354,2			100			108,5		
Toshkent shahri									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	2 532,9	11,3	120,4		616,2	2,8	126,6		
Uchtepa				Bektemir					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	905,9	4,1	122,5		1 587,3	7,1	129,9		
Yunusobod				Mirzo Ulug'bek					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	2 339,2	10,5	124,9		1 652,7	7,4	180,6		
Mirobod				Shayxontoxur					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	1 732,8	7,8	109,5		1 658,0	7,4	100,4		
Olmazor				Sirg'ali					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	1 145,9	5,1	90,9		4 366,8	19,5	94,7		
Yakkasaroy				Yashnobod					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	1 465,6	6,6	114,8		2 350,8	10,5	81,6		
Yangiyahot				Chilonzor					

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib 29,9 % ni, shuningdek, Sirg'ali tumani 21,0 % ni, Olmazor tumani esa 10,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2022- yilning yanvar-noyabr oylarida


<i>Mlrd. so'm</i>		<i>Ulushi % da</i>		<i>O'sishi % da</i>	
18 701,9		100		142,5	
Toshkent shahri					
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
1 040,0	5,6	131,6	5 600,6	29,9	220,9
Uchtepa			Bektemir		
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
893,2	4,8	120,8	468,8	2,5	122,3
Yunusobod			Mirzo Ulug'bek		
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
322,4	1,7	113,8	314,8	1,7	135,5
Mirobod			Shayxontoxur		
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
1 949,9	10,4	116,4	3 931,4	21,0	124,4
Olmazor			Sirg'ali		
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
979,5	5,2	153,1	948,3	5,1	102,3
Yakkasaroy			Yashnobod		
<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
968,0	5,2	165,9	1 285,1	6,9	109,3
Yangihayot			Chilonzor		

Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari
 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida


	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>				
	97 854,1			100,0			106,9				
Toshkent shahri											
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	5 922,7	6,1	101,9		9 048,8	9,2	115,4				
Uchtepa				Bektemir							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	4 374,1	4,5	110,1		5 006,7	5,1	102,5				
Yunusobod				Mirzo Ulug'bek							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	7 252,3	7,4	101,0		6 283,0	6,4	104,6				
Mirobod				Shayxontoxur							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	6 255,2	6,4	103,4		11 112,3	11,4	109,4				
Olmazor				Sirg'ali							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	6 546,2	6,7	116,2		23 517,8	24,0	102,3				
Yakkasaroy				Yashnobod							
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	3 916,9	4,0	105,6		8 618,0	8,8	104,7				
Yangiyahot				Chilonzor							

**Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

**Sanoat ishlab chiqarishi
fizik hajm indeksi, % da**



**Iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishda o'sish
sur'ati, % da**



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Bektemir (205,6 %), Shayxontohur (165,4 %), Yangihayot (130,8 %) hamda Mirzo Ulug'bek tumanlarida (128,1 %) qayd etildi.

Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,0 %) hamda Sirg'ali (11,4 %), Bektemir (9,2 %), Chilonzor (8,8 %) va Mirobod (7,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiheyot tumani (4,0 %), Yunusobod (4,5 %) hamda Mirzo Ulug'bek (5,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.
















Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (170 330,4 ming so'm), Yashnobod (83288,9 ming so'm) hamda Sirg'ali tumanida (72 650,2 ming so'm) shaharda o'rtacha daraja ko'rsatkichidan (6734,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shahar bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so'mdan yuqori ko'rsatkich Bektemir tumanida – 117 076,0 ming so'mni, Sirg'ali tumanida – 37 277,6 ming so'mni, Yashnobod tumanida – 23 286,0 ming so'mni, Mirobod tumanida –18 067,9 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, ming so'm



	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	33 762,8		14 698,1		
Toshkent shahri					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	20 510,7	12 372,9		170 330,4	117 076,0
Uchtepa			Bektemir		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	12 086,2	5 217,3		15 767,7	6 475,5
Yunusobod			Mirzo Ulug'bek		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	49 230,7	18 067,9		17 613,9	5 735,9
Mirobod			Shayxontohur		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	16 082,0	9 468,2		72 650,2	37 277,6
Olmazor			Sirg'ali		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	52 333,7	16 991,5		83 288,9	23 286,0
Yakkasaroy			Yashnobod		
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	25 280,6	15 706,6		32 080,7	13 535,6
Yangihayot			Chilonzor		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 33,0 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,8 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,9 %), Yangihayot (64,9 %), Yunusobod (52,9 %) hamda Yakkasaroy (44,0 %) tumanlarida kuzatildi.



Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (15,8 %), Mirobod (23,2 %), Bektemir (26,7 %) hamda Sirgʻali (29,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,7 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 12,7 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,4 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,8 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Shayxontohur tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida shahardada 1473 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 181 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi 12,3 %) Olmazor tumanida, 166 tasi (11,3 %) Yunusobod tumanida, 147 tasi (10,0 %) Chilonzor tumanida, 145 tasi (9,8 %) Uchtepa tumanida, 137 tasi (9,3 %) Yashnobod tumanida hamda 136 tasi (9,2 %) Mirzo Ulug'bek tumanida tashkil etildi.


Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonolari

2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar Olmazor (2129 ta), Chilonzor (2024 ta), Uchtepa (1909 ta), Yunusobod (1781 ta) hamda Shayxontohur (1448) tumanlarida qayd etildi.


Toshkent shahrida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonolari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi

(2022- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonolari joylashgan hududlar esa Bektemir (599 ta), Yangihayot (649 ta), Mirobod (964 ta), Sirg'ali (1062 ta), Yakkasaroy (1269 ta), Yashnobod (1432 ta), Mirzo Ulug'bek (1465), Shayxontohur (1448), Yunusobod (1781), Uchtepa (1909) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16